

KLASSIK IQTISODIY MAKTABNING RIVOJLANISHI

Begaliyeva Mardona

QarMII "Menejment" yo'nalishi 1-kurs talabasi

Razikov Xurshid Israilovich

Ilmiy rahbar: QarMII Menejment" yo'nalishi tyutori

Annotatsiya: *Ushbu maqola klassik iqtisodiy maktabning rivojlanish tarixi haqida yozildi. Maqolada klassik iqtisodiy davrda yashab ijod qilgan turli xil shaxslar va ularning fikrlari haqida aytib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Adam Smit, ko'rinmas qo'l, Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'grisida tadqiqot, David Rikardo, qiymat nazariyasi, Tomas Maltus, Nufus qonuni to'grisida tajribalar, Jan Bates Sey, sotish nazariyasi, merkantilizm.*

Merkantilizmning yemirilishi va klassik siyosiy iqtisod maktabining paydo bo'lishi (Angliyada) XVII asrga to'g'ri keladi. XVI asrning o'rtalarida boshlangan manufaktura davri XVII asrga kelib sanoatning ayrim tarmoqlarining rivojlanishiga olib keldi. Bu davrga kelib iqtisodiy ta'limotlarni rivojlantirish uchun, ya'ni iqtisodiyotni obyektiv tahlil qilish uchun qulay sharoit yaratildi. Mana shu sharoitda yashab ijod qilgan U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, F.Kene va klassik siyosiy iqtisod maktabining boshqa vakillari iqtisodiyotni ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq qildilar.

Klassik iqtisodiy maktabning rivojlanishida Adam Smit va uning "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'grisida tadqiqot" asari muhim o'rin tutadi. Xalqlar boyligi asoslarining birinchi jumlaridanoq Smit Xalqlar boyligining tabiati konsepsiyasini tushuntirib o'tgan. Bu ishi bilan u o'z qarashlarini merkantalistlar va fiziokratlarnikidan farqlanishini isbotlab berdi. Xalqlar boyligi asarining ko'p qismlarida Smit boyluk savdoda yaratiladi, degan fikrlari uchun merkantalistlarga qarshi bo'lgan. Uning fikricha, boyluk qimmatbaho metallar miqdori bilan emas, balki tovar va xizmatlardan olinadigan yillik foydadir. U shuningdek, eksport va import o'rtasidagi bog'liqlikni ham tushuntirib beradi. A.Smit Xalqlar boyligi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad bilan ham o'lchanadi, deb ta'kidlaydi. Hozirda masalan, Angliya Xitoydan boyroq, deyilganda ularning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad qiyoslanadi, umumiy ishlab chiqarilayotgan mahsulot va daromad emas. Bu qarash hozirda ham o'z kuchini yo'qotmagan.

Adam Smit (1723–1790) mehnat taqsimotini ko'p misollar bilan, tarixdan o'rganib, zavodda har bir ishchi faoliyatini kuzatib, foydasini o'rganib chiqqan. Agar har bir ishchi donalab mahsulot ishlab chiqarsa, unda ishlab chiqarish jarayoni juda sekin ketadi, agar ishlab shiqarish jarayoni bir qancha operatsiyalarga bo'lib tashlansa, har bir ishchi shu operatsiyalardan biriga ixtisoslashsa, har bir ishga nisbatan mahsulot hajmi katta miqdorda oshadi.

A.Smit "laissez faire, laissez passer"(yo'l bering o'tsinlar, yo'l bering bajarsinlar) shiori ostida klassik iqtisodiy maktabga "ko'rinmas qo'l" atamasini olib kirishi ushbu davr uchun kichik bo'lsada foydali kashfiyot bo'ldi. Bozor iqtisodiyoti bir markazdan turib boshqarilmaydi. Shunday bo'lsada, u muayyan tartib va qoidaga amal qiladi. Xo'jalik faoliyatining har bir ishtirokchisi o'z maqsadini ko'zlagan holda ish yuritadi. Biroq bunday sharoitda alohida kishilarning manfaatlari qanday uyg'unlashadi, barcha jamiyat manfaatlari qanday yuzaga chiqadi? Bu muammoni birinchi bo'lib ilmiy darajaga ko'targan A.Smit bo'ldi. U shunday yozadi: "Har bir kishi o'z kapitalini ko'proq qiymat keltiradigan qilib ishlatishga harakat qiladi. Odatda, u jamiyat foydasiga ta'sir ko'rsatishni nazarda tutmaydi va unga ancha ta'sir ko'rsatayotganini sezmaydi. U faqat o'z manfaatini nazarda tutadi, faqat o'z foydasini ko'zlaydi. Shunday bo'lsada, bunday maqsad uning rejasiga kirmagan bo'lsa ham, ushbu sharoitda ko'rinmas qo'l uni maqsad sari yo'naltiradi. O'z manfaatlarini ko'zlagan holda jamiyat manfaatlariga ataylab unga xizmat qilgandan ko'ra tez-tez xizmat qilib turadi". Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha turli mehnat egalari o'rtasida raqobat kurashi amal qilib turadi. Bunda shaxsiy manfaat, o'z foydasini ko'zlab ish yuritish bir vaqtning o'zida jamiyatga foyda keltiradi, umumiy boylikka erishishni ta'minlaydi. Demak, bozor iqtisodiyotida ko'rinmas qo'l amal qiladi. Klassik iqtisodiy davr A.Smitning ushbu va yana ko'pgina nazariyalari orqali tom ma'noda rivojlana boshladi. A.Smit o'z davridagi iqtisodiy bilim va konsepsiyalarini umumlashtirdi va tizimlashtirdi. U xo'jalik hayotining asosiy sohalarini tavsiflab beruvchi bir butun nazariya yaratdi.

Albatta Smit iqtisodiy klassik iqtisodiy maktabning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan va eng asosiy nazariyalar u tomonidan yaratilgan. Ammo uning fikrlari ham mukammal emas edi(masalan narxlarning umumiy darajasi, nisbiy narxlarda chalkashliklarga yo'l qo'ydi.), shuning uchun klassik iqtisodiy maktab boshqalarni nazariyalari asosida ham rivojlandi.

Klassik iqtisodiy maktabning yana bir mashhur namoyondasi David Rikardo (1772–1823)dir. Rikardo iqtisodiy ta'limotlarda o'zining sof nazariyasi bilan iqtisodiyot rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. U sanoat davriga xos ilmlarni hajm va uslubda abstrakt tahlil orqali ko'rib chiqdi. Rikardoning usuli yuzaki va sof nazariy bo'lsa ham, amaliy iqtisod, siyosiy iqtisodiyot uning kuchli tomonlari bo'lgan. Jumladan, uning don masalasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari uning Angliyadagi ijodi – bug'doy importi va undan olinadigan daromadni taqsimlashga o'z ta'sirini ko'rsatmagan bo'lsada, keyinchalik bu nazariya unga amaliy masalalarni aniq tahlil qilish uchun zamin bo'ldi. Tyurgo, Styuart, Smit, Sismondi va boshqalarning asarlarida ijara, foyda, ish haqi va boshqa tabiiy ma'lumotlar berilgan bo'lsa, siyosiy iqtisod muammolari: daromad va uni taqsimlash qonunlari ilmiy tahlil qilinmagan edi. Rikardo daromadlarni taqsimlash funksiyasiga to'liq kirishib, uni tizimda makroiqtisodiyotning bir qismi sifatida tan oldi. Uningcha bu yerda uch sinf muammosi yotadi, bular: kapitalistlarning foyda olishga qiziqishi, yer egalarining renta olishi, ishchilarning ish haqi olishi. Kapitalistlarning aksiyadan oladigan daromadini tushintirish

uchun daromad, foiz, renta va ish haqi nazariyalari yaratildi. D.Rikardo qiymat nazariyasiga alohida e'tibor bergan holda, undagi noaniqlarni tugatishga harakat qiladi. Bu muammoni ko'rib chiqishda u Smitning nazariyalarini o'rganib chiqadi. Mahsulotning narxi unga bo'lgan talab va taklifga bog'liq deb takidlagan Smitning fikrini Rikardo inkor etgan holda qiymat nazariyasi faqat mahsulotga sarlangan mehnat bilan aniqlanishi kerak deb ta'kidlaydi, chunki uning fikricha qiymat birlamchi, shuning uchun uni daromad bilan aniqlab bo'lmaydi. Bu fikr orqali Rikardo qiymatning mehnat nazariyasi tarafdori ekanligini ko'rsatadi. Umuman Rikardoning qiymatning mehnat nazariyasi ushbu davrning yana bir buyuk va klassik iqtisodiy maktab tarixida o'chmas iz qoldirgan do'sti Maltus tomonidan ilk bor tanqid qilinadi. U birinchidan, savol qo'yadi: agar qiymatning mehnat nazariyasini to'g'ri, deb faraz qilsak, unda mehnatga haq to'lash qanday bo'ladi: qiymat bo'yichami yoki qiymatdan past baho bo'yichami? Agar baho qiymatdan past bo'lsa, unda ekvivalentli ayirboshlash tamoyili buziladi (foydaliligi har xil, lekin bir xil qiymatga ega bo'lgan tovarlar ayirboshlanadi) – bu klassik iqtisodiy nazariyaning va D.Rikardoning asosiy tamoyili. Ikkinchidan, T.Maltus qiymatning mehnat nazariyasi real amaliyot bilan mos tushmasligini ko'rsatib beradi: agar qiymatning yagona manbayi haqiqatdan ham mehnat bo'lsa, unda mehnat ko'p sarflanadigan tarmoqlardagi tadbirkorlar kapital ko'p sarflanadigan tarmoqlardagi tadbirkorlarga nisbatan ko'proq foyda olishlari kerak. Amaliyotda esa barcha tarmoqlarda foyda me'yori deyarli bir xil. Demak, D.Rikardo nazariyasi xato, tovar qiymati faqat mehnat bilan emas, balki boshqa ishlab chiqarish omillari sarflari bilan ham aniqlanadi, deb xulosa qiladi. D.Rikardo ham o'limidan sal avval, o'zining qiymat faqat mehnat sarflari bilan o'lchanadi, deb tushuntirishga qilgan harakati noto'g'ri ekanligini tan olgan. D.Rikardoning bu fikri ushbu davrning ko'plab shaxslari tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga qaramay bu fikr oxir-oqibatda xato bo'lib chiqadi, lekin D.Rikardo tomonidan yaratilgan Renta nazariyasi nafaqat o'z davrida balki hozirgi davrda ham foydalanilyapti. D.Rikardoning renta to'g'risidagi konsepsiyasi bugungi kunda ham o'z faolligi bilan ajralib turadi. Yerdan foydalanganlik uchun hamisha renta to'lanadi, bunda uning manbayi, D.Rikardoning tasdiqlashicha, yerga sarflangan mehnat hisoblanadi.

Yana bir buyuk iqtisodchilardan biri bu yuqorida aytib o'tganimizdek, Tomas Maltus(1766-1834). Maltus pul nazariyasiga va "ortiqcha ishlab chiqarish" nazariyasiga katta hissa kushgan. "Nufus qonuni to'g'risida tajribalar" asari (1798) unga katta mashhurlik keltirdi. Maltus bu asarida ko'pgina iqtisodchilar orasida qabul qilingan aholi soni va uning o'sishi boylikdir, degan fikrga zid holda aholi oziq-ovqatning cheklangan taklifiga duch kelguniga qadar o'saveradi, aholi geometrik, oziq-ovqat mahsulotlari taklifi arifmetik progressiya bo'yicha o'sadi, deb qaraydi. Aholi o'sishini ijobiy (ya'ni o'limni ko'paytirish orqali) — urushlar, epidemiyalar va boshqa yoki salbiy (tug'ilishni cheklash orqali) — ahloqiy cheklashlar, kech nikohga kirish va boshqa yo'llar orqali nazorat qilish mumkin. Maltus o'z fikrlarini "tuproq unumdorligining pasayib borishi qonuni" bilan asoslashga urinadi. Maltus ning ish haqi nazariyasi tirikchilik minimumga teng bo'lgan doimiy ish haqini nazarda tutadi. Lekin rivojlangan mamlakatlarda aholi ham, ish haqi ham,

Maltus ning bashoratlariga zid holda, texnika ravnaqi tufayli o'sib, daromadlarning o'sishi darajasiga qarab tug'ilish pasayib bormoqda. Maltus javob berishga harakat qilgan muammolar hozirgi zamonda ham past rivojlangan mamlakatlarda dolzarb hisoblanadi. Bu mamlakatlarda tug'ilish koeffitsiyenti yuqori bo'lgan sharoitda tibbiyotni "import qilish" bilan rivojlangan mamlakatlardagi kabi past o'lim koeffitsiyenti ta'minlanmoqda va, ayni paytda, bu mamlakatlarda qashshoqlik muammosi mavjud. Shuningdek, ayrim ekologlar jahon miqyosida aholining va sanoat ishlab chiqarishining o'sishi resurslar taqchilligiga olib keladi, deb qaraydi.

Fransuz iqtisodchisi Jan Batist Sey (1767—1832) g'oyalari iqtisodiyotdagi to'la erkinlik sharoitidagina ishlab chiqarish omillari (mehnat, kapital va yer)dan eng samarali foydalanish mumkinligi va sinflar o'rtasidagi munosabatlar uyg'unlashuvi ilgari suriladi. Seyning eng muhim kashfiyotlaridan biri "Sey qonuni" — "bozor qonuni" yoki "sotish nazariyasi" hisoblanadi.

Umuman olganda yuqorida aytib o'tilgan shaxslar klassik iqtisodiy maktabning rivojlanishi uchun boshqalarga nisbatan aniqroq va foydaliroq fikrlarni aytib o'tgan. Klassik iqtisodiy maktabning rivojlanishi esa 4 bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqich vakillari V.Petti va Buagilberdir. Bu davrda asosan merkantilizmning xatolari borasida so'z boradi va bu davr XVIII asrning ikkinchi yarmida fransiyalik F.Kene va A.Tyurgolar tomonidan ilgari surilgan fiziokratizm bilan yakunlanadi.

Ikkinchi bosqichni esa A.Smit davom ettiradi. Asosiy rivojlanish belgilari va sezilarli o'zgarishlar aynan shu davrda paydo bo'la boshlaydi.

Uchinchi bosqichdagi iqtisodiy nazariyalar J.B.Sey, D.Rikardo, T.Maltus tomonidan fanga olib kiriladi va bu davr boshqa davrlardan rivojlanish tezligi va samarasi bilan farq qiladi. Chunki D.Rikardo A.Smitning xatolarini bartaraf etgan holda shaxsiy nazariyalarini taqdim etgan bo'lsa, Rikardoning ba'zi xatolari Maltus tomonidan tanqid qilinadi va bir vaqtda u ham o'zining fikrlarini bera boshlaydi.

To'rtinchi bosqichni esa J.S.Mill qarashlari yakunlaydi.

19-asr oxirlarida klassik siyosiy iqtisod maktablariga muqobil iqtisodiy g'oyalar paydo bo'la boshladi, klassik maktabning bir qancha qonunqoidalari yangi sharoitlarga moslashtirilgan holda neoklassik qarashlarda o'z aksini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.S.Jumanov , Z.G.Allaberganov "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" (o'quv qo'llanma) Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2017
2. Sh.H.Tashmatov, X.S.Asatullayev, Z.G.Allaberganov "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2019
3. MALTUS (Maltus) Tomas Robert" O'zME. M-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Razzoqov A. va boshqa, Iqtisodiy ta'limotlartarixi, T., 1997
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
6. History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander Ivii.